



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№2(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 156 sahifa,  
2-fevral, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari .....	22
<b>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</b>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida .....	26
<b>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</b>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<b>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</b>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<b>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</b>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish .....	37
<b>Nusharov Bobir Bolbekovich</b>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя .....	41
<b>Олимова Азиза Кахрамоновна</b>	
“Vitagen ta'lim texnologiyalari” asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari .....	47
<b>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</b>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<b>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</b>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari .....	54
<b>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi .....	59
<b>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Quدراتulla qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli .....	64
<b>Botirova Lobar Kamolovna</b>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish .....	69
<b>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish .....	73
<b>Ergasheva Nigora Erkinovna</b>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects .....	76
<b>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</b>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<b>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</b>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni .....	85
<b>Baxramova O'ramol Uralovna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<b>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</b>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari .....	92
<b>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</b>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli .....	96
<b>Ergasheva Mehriyona</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
<b>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</b>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies .....	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili .....	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi .....	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations .....	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling .....	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish .....	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni .....	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni .....	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA NAZARIY ASOSLANISH MOHIYATI

**Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy tushunchalar va nazariy asoslar yoritilgan. Shuningdek, mazkur masala bo'yicha metodist, pedagog va psixolog olimlarning qarashlari keltirilib, ularning fikrlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, matn ustida ishlash, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalari, ilmiy tushunchalar, nazariy asoslar, qarashlar, subyektiv munosabat.

**Abstract:** This article presents the views of methodologists, educators, and psychologists on scientific concepts and theoretical foundations for developing students' speech competencies through working with texts in the preparation of future primary school teachers. It also analyzes their perspectives.

**Key words:** future primary school teachers, working with texts, students' speech competencies, scientific concepts, theoretical foundations, views, subjective attitude.

**Аннотация:** В данной статье представлены взгляды методистов, педагогов и психологов на научные концепции и теоретические основы развития речевых компетенций учащихся посредством работы с текстом у будущих учителей начальной школы, а также проанализированы их мнения.

**Ключевые слова:** будущие учителя начальной школы, работа с текстом, речевые компетенции учащихся, научные концепции, теоретические основы, взгляды, субъективное отношение.

## KIRISH

O'quv jarayonida ta'lim subyektlarining nutqiy kompetentligini zamonaviy ilg'or texnologiyalar va interaktiv-innovatsion metodlar vositasida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ilmiy-nazariy asoslanish, pedagogik ustuvorlik va didaktik tamoyillarga tayanib tashkil etish, o'quv mashg'ulotlari maqsad va vazifalarini fanlararo aloqadorlik asosida interaktiv tarzda o'rgatish ulardagi nutqiy-ijodiy faollikni oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, dastlab tushunchalarning lug'aviy-semantik mazmuni va konseptual asoslanishi bo'yicha bilimlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Kontekst so'zining lug'aviy ma'nosi va semantik birlik sifatidagi xususiyati hamda mohiyatidan kelib chiqib aytish joizki, "kontekst" atamasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim terminlardan biri sanaladi. U tilshunoslik va mantiqqa oid leksema bo'lib, grammatik va morfologik ifodalarni muayyan matn asosida tushunishga yordam beruvchi vositadir. Mazkur ta'limiy vosita nutqiy vaziyatning nazariy-konseptual asoslarini yoritishni ta'minlaydi. Shu sababli o'quvchilarni kontekstli yondashuvga yo'naltirish va nutqiy kompetentligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tushunchaning g'oyaviy-nazariy tavsifi tadqiqotchi M. Yo'ldoshevning badiiy matn lingvo-poetikasiga bag'ishlangan monografiyasida batafsil bayon etilgan <sup>[1]</sup>.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchi Sh. Sariyev matn mazmunini o'rganish, tahlil qilish va idrok etish uchun ifodali o'qish hamda yod olish, matndagi voqealarga munosabat bildirish, voqealar tizimi va tasviriy vositalarni aniqlash, asosiy g'oyani belgilash, matn mazmunini qayta hikoyalash, ma'lumotlarga tayanib hikoyani davom ettirish, izlanish va ijodkorlikni talab etuvchi topshiriqlar, lug'at ishlari hamda mustaqil ravishda hikoya tuzish yoki yozishga doir savol-topshiriqlarni ishlab chiqqan [2].

Metodist olimi U. Masharipovanning fikricha, "Ona tili darsliklariga kiritiladigan mashq materiallari quyidagi mezonlar asosida tanlanishi o'quvchilar nutqiy ko'nikma va malakalarini o'stirishning muhim omili sanaladi:

- bog'lanishli matn xarakterida bo'lishi;
- o'rganilayotgan til bilimini o'zlashtirishni ta'minlashi va mustahkamlashi;
- o'quvchilar hayotiga bog'liq va yoshiga mos bo'lishi;
- davr taraqqiyotini o'zida aks ettirishi;
- ta'limning shu bosqichida o'qitiladigan fanlar bilan bog'lanishi" [3].

D. Muhamedova matn atamasini quyidagicha izohlaydi: "1) matn deyilganda, tugal mazmunga ega bo'lgan bir yoki undan ortiq gaplardan tuzilgan ifoda; 2) qissa, roman, gazeta yoki jurnal maqolasi, ilmiy monografiya, turli turdagi hujjatlar va shu kabi nutqiy asarlar mazmuni" [4].

"Ma'lum bo'ladiki, matn o'qib tushunish, o'qib eshittirilgan matn mazmunini anglash, matn yod olish o'quvchilarning retseptiv va reproduktiv nutqinagina o'stirishga yordam beradi" [5]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash asosiy o'rin tutadi.

Matn o'qish, uning mohiyatini anglash hamda mazmunini to'liq tushunish jarayonida o'quvchilarning egallagan bilimlari va fikrlash mahsuli sinovdan o'tadi. O. L. Kamenskaya "Matn va kommunikatsiya" asarida: "Matn bir vaqtning o'zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o'rtasida aloqa munosabatini yuzaga keltiruvchi vositadir", – deya ta'kidlaydi [6].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari matnli o'qitish orqali turli axborotlarga ega bo'ladilar. "Matn yaratilishi modullariga axborot generatori va artikulyatorlari kiradi. Nutq, xususan, matn yaratilishi nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning o'ziga xos qoidalariga ham bo'ysunadi" [7].

N. Abdurahmonovning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" asarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish hamda badiiy asarlardan olingan matnlar ustida ishlashning ijobiy natijalari haqida fikr yuritilgan [8].

Ayonki, "Ona tili" darsliklarida ilmiy, rasmiy va publitsistik matnlar bilan bir qatorda badiiy matnlar ham o'rin olgan. K. Mavlonomaning e'tiroficha, "Badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni so'z ishlatish mahorati bilan tanishtirish va ularda shunday mahorat ko'nikmalarini shakllantirishdir" [9].

Bizningcha, badiiy matn orqali o'quvchilarda so'zni o'rinli qo'llash va matnga mos leksik birliklarni tanlab ishlatish ko'nikmalari shakllanadi. Ularda matn mazmuniga mos leksik birliklarning ma'nolari va farqli jihatlarni bilgan holda so'z qo'llash mahorati rivojlanib boradi. Natijada og'zaki va yozma savodxonlik darajasi oshadi.

Taniqli metodist T. Ziyodova matn mazmunini saqlagan holda uning shaklini o'zgartirish, matndagi so'zlarni ma'nodosh birliklar bilan almashtirish, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish yuzasidan topshiriqlar ishlab chiqqan hamda matnda qo'llaniladigan sintaktik birliklar yuzasidan ilmiy fikr-mulohazalar bildirgan [10].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash bilan birga, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa ekanligini anglagan holda, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi o'sib borishiga zamin yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari ta'limiy vositalarda o'z aksini topib, ona tili o'quv dasturlari va o'quv darsliklari orqali amalga oshiriladi. Ona tili darsliklarida berilgan mashqlarning aksariyat qismi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiy nutq va uning xususiyatlari haqidagi dastlabki bilimlar umumiy o'rta ta'lim muassasalaridan boshlab ona tili darsliklarida o'quvchilarga qoidalar, ta'riflar, mashq va topshiriqlar shaklida berilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchilar yoshligidan nutq va uning turlari, ahamiyati, nutqning inson hayotidagi o'rni haqida tushunchalarga ega bo'ladilar. 8-sinf "Ona tili" darsligida nutqning turlari va uning ko'rinishlari haqida 4-mashqda ma'lumot berilgan. "Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aralashuvning eng asosiy vositasidir, u yozma va og'zaki nutq jarayonida o'z ijtimoiy vazifasini bajaradi. Nutqning adabiy va shevaga xos ko'rinishlari bor" <sup>[11]</sup>. Ilmiy matni o'qing va tushunganlaringizni so'zlab bering tarzidagi topshiriqlar o'quvchilarda nutqning shakllanishi yuzasidan bilim va ko'nikmalar hosil qilishga xizmat qiladi. Bu mashqni o'qituvchi va o'quvchilar bilan birgalikda savol-javob orqali mustahkamlash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishini ta'minlaydi. So'zni o'z o'rnida ishlata bilish, uning leksik ma'nosini anglash zarur. So'zning leksik ma'nosini tushunmaslik uni xato qo'llashga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda o'z nutqida morfemik va leksik birliklarni to'g'ri qo'llash hamda matndan lisoniy sathlarni anglagan holda ularni matn tarkibiga kiritish bo'yicha bilimga ega bo'ladilar. Ular gaplarni so'z va so'z birikmasiga ajratganda, gapda ishtirok etgan so'zlar va ularning o'zaro semantik xususiyatini yaxlit holda tushuna olish ko'nikmasini shakllantiradilar. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchiga o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq, tushunarli va savodli tarzda ifodalashni o'rgatishdir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ularni mushohada qilishga o'rgatib, yozma nutqiga e'tibor qaratish o'qituvchilarning vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu haqida ma'lumotlar darslik va qo'llanmalarda yoritilgan. Xususan, B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" <sup>[12]</sup> nomli qo'llanmasida quyidagicha ma'lumot keltirilgan: ona tili ta'limining ongllilik prinsipi quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Tilning ifoda imkoniyatlaridan to'g'ri va o'rinli, nutqiy vaziyatlarga mos ravishda foydalana olish;
2. Mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini shakllantirish, ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirish;
3. Kommunikativ savodxonlik, zamonaviy texnik vositalardan til o'rganish jarayonida unumli foydalanishning turli usul va vositalarini bilish;
4. Lingvopsixologik o'quv topshiriqlari tizimini ona tili ta'limiga joriy etish o'quvchi ongida mustaqil mushohada yuritish, so'z tanlash va fikr ehtiyojini hosil qilishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, nutqiy faoliyat ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning darsdan keyin qo'shimcha badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'quvchilari badiiy adabiyotni o'qib, uni mustaqil tahlil qilar ekan, ularning og'zaki nutqi rivojlanishi bilan bir qatorda savodxonlik darajasi ham oshadi. Qolaversa, har qanday badiiy asar o'quvchining dunyoqarashini va so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda og'zaki nutqni takomillashtirish bilan birga yozma nutq ham talab darajasida bo'lishi lozim. A. G'ulomovning fikricha: "Ba'zan o'quvchilar berilgan savollarga nazariy jihatdan to'g'ri javob qaytaradi. O'qituvchining nazarida u ona tilining qoidalarini yaxshi o'zlashtirgandek tuyuladi. Ammo yozma ish jarayonida ana shu 'o'zlashtirgan' qoidaga taalluqli qator xatolar sodir bo'ladi". Shuning uchun dars jarayonida o'quvchilarning yozma nutqiga jiddiy e'tibor berish orqali ularning rasmiy ish hujjatlarini to'g'ri yozishiga yordam bergan bo'lamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi faoliyatli omillarga tayanish lozim:

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga lug'atlar bilan ishlashni o'rgatish;
- matn tarkibiga so'zni to'g'ri tanlash me'yorini bilishga yo'naltirish;
- matnga mos leksik birliklar semantikasini tushunishni oshirish;
- o'zbek tilining imlo qoidalariga asoslanib matnni to'g'ri yozishni nazorat qilish.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nutq turlari, xususan, yozma nutq jamiyatda millat savodxonligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Ona tili fanini o'qitishda hozirgi zamon talablari asosida yondashish, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash zamonaviy o'qituvchi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Chunki an'anaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarni tayyor ma'lumotlarni o'rganishga qaratilgan bo'lsa, bugungi ta'lim jarayoni yangi



innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, o'rgatlayotgan bilimlarni o'quvchining o'zi mustaqil ravishda izlab topishi va erkin holda xulosa chiqarishga undashni maqsad qilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопозитикаси. – Т.: Фан, 2008. – 160 б.
2. Сариев Ш. Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 36-38 б.
3. Машарипова У. Инновацион таълим шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини шакллантириш методикаси: Пед. фан. док. (PhD) дисс. – Т.: 2018. – 80-163 б.
4. Муҳамедова Д. Микроматн ҳақида айрим мулоҳазалар // Тил ва адабиёти таълими. – Тошкент, 1998. – №1. – 56-б.
5. Нисанбаева А.Қ. Ўзбек тили дарсларида матн воситасида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг методик асослари (таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. номз. дисс. – Т.: ТДПУ, 2008. – 105 б.
6. Лосева Л.М. Как строится текст: Пособие для учителей. Переизд. – М.: Просвещение, 2000. – С.
7. Сариев Ш. Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 18 б.
8. Абдурахмонов Н. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Тошкент, 1969. – 176 б.
9. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш: Пед. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2019. – 30 б.
10. Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш: Пед. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1995. – 16-19 б.
11. Qodirov M., Ne'matov N., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Она тили: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Т.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2006. – 5 б.
12. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т., 2009. – 31 б.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.